

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA IQTISODIY
HAVFSIZLIKNI TAMINLASHNING O`ZIGA HOS JIHATLARI**

Madrahimov Shohruxbek Tohirjon o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash yo'llari to'g'risida takliflar berilgan. Unda berilgan imkoniyatlar va davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va qo'llab quvvatlashlar, bugungi kundagi tadbirkorlarga va tadbirkorlikka qo'yilgan talablar shu jumladan tadbirkorlikning siyosiy darajalari to'g'risida ma'lumot berildi.*

Kalit so'zlar: *Tadbirkorlik, imtiyozlar, biznes, tadbirkor, tadbirkorlik korxonalar, tadbirkorlik, kompotensiyasi, iqtisodiy rivojlanish, raqobat, iqtisodiy havf hatarlar, kichik biznes.*

Аннотация: В данной статье даны предложения по способам обеспечения экономической безопасности в сфере малого бизнеса и предпринимательской деятельности. В нем представлена информация о возможностях, льготах и поддержке, предоставляемых государством, требованиях к предпринимателям и предпринимательству сегодня, включая политический уровень предпринимательства.

Ключевые слова: Предпринимательство, льготы, бизнес, предприниматель, хозяйствственные предприятия, предпринимательство, компетентность, экономическое развитие, конкуренция, экономические риски, малый бизнес.

Annotation: *In this article, suggestions are given on ways to ensure economic security in small business and entrepreneurial activity. It provided information about the opportunities and benefits and support provided by the state, requirements for entrepreneurs and entrepreneurship today, including the political levels of entrepreneurship.*

Key words: *Entrepreneurship, benefits, business, entrepreneur, business enterprises, entrepreneurship, competence, economic development, competition, economic risks, small business.*

So'nggi olti yilda O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 2 mingga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Buning natijasida:

- tadbirkorlik sohasida talab etiladigan 114 turdag'i litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi;
- 33 turdag'i litsenziya va ruxsatnomalar o'rniiga xabardor etish tartibi joriy etildi;
- soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;
- soliq tekshiruvlari turi 13 tadan 3 taga qisqartirildi;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga kamaytirildi;
- ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi;
- 3,5 ming turdag'i tovarlar uchun import bojxona boji va 1,1 ming turdag'i tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi;

- 3 mingdan ziyod turdagи tovarlar uchun import bojxona bojlari keskin kamaytirildi.

Tadbirkorlikning shakllanishi ijtimoiy va iqtisodiy sharoit bilan chambarchas bog`liq bo`lishi kerak. Tadbirkorlik rivojlantirishning faoliyat yuritish uchun iqtisodiy sharoitiga ijtimoiy sharoit yaqin va muhim omil sifatida turadi. Ijtimoiy sharoitda, avvalo, bozorning talabi, xaridorlarning didi va modaga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Ichki va tashqi bozorning taklifiga qarab turli bosqichlarda ushbu talab o`zgarib turishi mumkin. Bunda ijtimoiy-madaniy muhitga zamon talabiga bog`liq ahloqiy va diniy me`yorlar jiddiy ta`sir ko`rsatadi. Ushbu me`yorlar xaridorlarning turmush tarziga va u orqali tovarlar talabiga bevosita ta`sir etadi. Ijtimoiy sharoit shaxsning ishga munosabatiga o`z ta`sirini o`tkazadi, bu esa, o`z navbatida, biznes taklif etayotgan maoshning miqdoriga, tadbirkorlikda mahsulotning talabi qanchalik yuqori bo`lsa mehnat sharoitiga bo`lgan munosabatiga shunchalik katta ta`sir etadi.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida ishbilarmon xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritishning zamonaviy uslublarini o`rganishni tashkil etish, xodimlarni o`qitish va qayta o`qitish, ularni rivojlangan mamlakatlarga malaka oshirish uchun yuborish, ishbilarmonlarni o`qitish uchun o`qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish, tadbirkorlik sektori uchun xodimlarni tanlash bo`yicha maslahat markazlarini ochish kerak.

Har bir tadbirkorlik faoliyati tegishli huquqiy muhitda kechadi. Shuning uchun kerakli huquqiy sharoit yaratish katta ahamiyatga ega. Bu birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini tartibga keltiruvchi farmonlar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beruvchi qonunlarning mavjudligi, ya`ni korxonalarini ro`yxatdan o`tish jarayonining qisqa va oddiy bo`lishi; tadbirkorlikni davlat byurokratizmidan himoya qilish; soliq qonunchiligini takomillashtirish;

TADBIRLIK FAOLIYATINI QO`LLAB-QUVVATLASH DAVLAT JAMG`ARMASI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO`SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO`G`RISIDAGI QARORIDA

O`zbekistan Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli “Kichik va o`rta biznesni moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonida ham.

So`nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag`allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash davlat jamg`armasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarining 46 mingdan ziyod loyihibariga 15 trillion so`mdan ortiq miqdorda moliyaviy yordam ko`rsatildi.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, va tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash orqali joylarda tadbirkorlik va

ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish ishlari olib borilayotganini ko'rishimiz mumkin;

Eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularga keng imkoniyatlar berish orqali respublikada eksport hajmini oshirishga ko'maklashish;

Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

Mamlakatda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, jumladan hududlarda iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim drayver sohalarni rivojlantirish borasida moliyaviy ko'maklashish;

Tijorat banklarining kreditlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo'nalishlar, jumladan axborot tizimlari va dasturlarini yaratish loyihamonlari moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko`plab tadbirkorlar uchun imkoniyatlar va qator yengilliklar, loyihamonlari amalga oshirish uchun mazkur qarorda hammasi ko`rsatib o'tilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida ham, Siz kabi ishning ko'zini biladigan, ishbilarmon yurtdoshlarimiz timsolida biz tom ma'nodagi Yangi O'zbekiston buniyodkorlarini ko'ramiz.

Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagи o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.

Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish - eng muhim vazifamizdir. Sh.Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Biz tadbirkorlarga bergen ishonchlari, yaratib bergen imkoniyatlari berilgan imtiyozlaridan oqilona foydalanib yurtimiz rivojiga kelajagimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shish sharafiga tuyassar etganidan behat xursandmiz. Bizga berilgan masuliyatli ishonchni oqlash uchun yurtimizda kambag'allikni qisqartirishga, ishsizlikni oldini olishga o'zini hissasini qo'shadigan tadbirkorlar safi kopayib o'zini biznes loyixalari jahon tadbirkorlari bilan bir safda turadigan darajada kuchli loyihamalar taklif etish va uni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlarini ko'ra bilish

Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy havfsizlikni taminlashda tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelayotgan tadbirkor o'zining kasbi bo'yicha kompotensiyasi shakillangan bo'lishi kerak. Tadbirkor ishni boshlashdan avval tadbirkorlik loyihasini ma'naviy va iqtisodiy tomonlama o'rganib chiqqanligi zarur. Tadbirkorlik faoliyatini boshlagandan so'ng quyidagi hususiyatlarga ahamiyat berishi zarur:

- 1) Davlat qonunlarini hurmat qilgan holda qonunlarga amal qilishi, qonunlar buzilishiga yo'l qo'ymasligi.
- 2) Tadbirkorlik faoliyatida sofkillik, tejamkorlik va halollikka amal qilish.
- 3) Ishchilarni moddiy va ma'naviy tomonidan rag'batlanira olishi.

- 4) Tadbirkorlik loyiha strategiyasidan chiqmagan holda ish olib borishi.
- 5) Maqsadini aniq qo`yib maqsadiga erishishi.

Amerikalik iqtisodchi J.B. Klark (1847-1938) J.B. Seyning «uchlik formulasiga» bir oz o ‘zgartirish kiritdi. Uning fikricha, ishlab chiqarishda doim to‘rt omil ishtirot etadi:

- 1) kapital;
- 2) ishlab chiqarish vositalari va yer;
- 3) tadbirkorlik faoliyati;
- 4) ishchining mehnati.

Har bir omil ishlab chiqarishdan olinayotgan o ‘ziga xos foydani aks ettiradi: kapitaldan kapitalist qo’shimcha foiz oladi; yer renta beradi; kapitalistning ishbilarmonlik faoliyati daromad keltiradi; ishchining mehnati uni maosh bilan ta’m inlaydi. Boshqacha qilib, Biz J.B. Klarkning so‘zlariga tayanib, Erkin raqobat mehnatga mehnatdan kelgan narsani berishini, kapitalistlarga kapital yaratgan narsa tegishini, tadbirkorlar muvofiqlashtirish faoliyatidan kelgan narsani olishini tushinishimiz mumkin. B.Klark ham tadbirkorlik faoliyatini u ana shunday tushungan.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri kicliik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

Inqirozga qarshi choralar dasturida iqtisodiy o`sishni ta`minlash, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o`rin tutayotgan kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rag` batlantirish va qo`llab quvvatlashga alohida e`tibor qaratildi.

O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamllakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakillarini ustuvor rivojlantirish va tadbirkorlarga ma`lum bir darajada erkinlik va imkoniyatlar yaratib berishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o`tkazilmoqda, uning rolini oshirish uchun yirik institusional asoslar yaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy meyoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko`maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O`zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari majmuuni tashkil etish muvaffaqiyatli borayotganini va tadbirkorlik korxonalari va yosh tadbirkorlarni sezilarli darajada rivojlanayotganini ko`rishimiz mumkin.

Kichik biznes faoliyati bilan shug`ullanuvchi korxonalar davlatga bog`liq bo`lmagan holda, ya`ni katta capital mablag` larsiz o`zları ish joylarini joriy etishlari, hozrgi davrda bizda vaqtinchalik mayjud tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo`qotishlari mumkin. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g`oyat katta ahamiyatga ega.

Bizningcha tadbirkorlar o`z tadbirkorlik faoliyatini boshlashdan avval kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy havfsizlikni taminlashning o`ziga hos xususiyatlarini chuqr o`rganishlari lozim. Shuningdek muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tadbirkorlarga yaratib berayotgan keng shart-sharoitlar va imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalanmog`i lozim. Tadbirkorlikda eng muhim omillardan biri yangi va yosh tadbirkorlar yaratgan tadbirkorlik korxonalari kelgusida inqirozga va turli qiyinchiliklarga uchramasligi uchun eng

avvalo tadbirkorlikdagi barcha havf hatarlarni shu jumladan iqtisodiy hayflarni va tadbirkorlar uchun qilinishi shart bo`lgan vazirlar mahkamasi tomonidan chiqarilgan qonunlar va imtiyozlardan chetga chiqmagan holda ish yuritishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Предпринимательство: Учебник.

Для вузов /Под ред.проф. В.Я.Горфинкеля, проф. Г.Б.Поляка, проф. И.А.Швандара. -М.:

Банки и биржи, ЮНИТИ, 2001. 18 стр.

“Daryo” internet-nashri

К. Е. Кнап РаспреjиеHne Богатцва. – М., 1994. 40-6. 2 М. UlyMnemep TeopHJi ОКОНОМИHесKoro pa3BHTHН. – М., 1982. 29-6.

“Tadbirkorlik to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni. T.:O`zbekiston, 2023.

“Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag`batlantirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni. T.:O`zbekiston 2021.

“Kichik biznes va tadbirkorlik” kitobi Mualliflar: M.Boltabayev, M.Qosimova, B.G`oyibnazarov, Sh.Ergashxodjayeva, A.Samadov, Sh.Otajonov T.: “NOSHIR” nashriyoti 2011.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son Farmoni